

# TerDUda akademik Ro'zi Choriyev tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi



TerDUda akademik Ro'zi Choriyev tavalludining 90 yilligi munosabati bilan Respublika ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi

2021-yilning 25-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-iyundagi "O'zbekiston xalq rassomi Ro'zi Choriyev tavalludining 90 yilligini keng nishonlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 43-son majlis bayoni bilan tasdiqlangan dasturiga asosan Termiz davlat universitetida "O'zbekiston tasviriy san'ati rivojida Ro'zi Choriyev ijodining o'rni va ahamiyati" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etildi.

Konferensiyada respublikamizdagi oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, rassomlar, OAV vakillari va talabalar ishtirok etdi.

Anjumanni universitet rektori, texnika fanlari doktori, professor Maraximov Avazjon Raximovich kirish so'zi bilan ochib berdi. Ro'zi Choriyevning tasviriy san'at rivojiga qo'shgan salmoqli hissasi to'g'risida fikrlar bildirib o'tdi.

Rassom ijodiy faoliyati to'g'risida O'zbekiston Badiiy akademiyasi raisi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi akademigi, professor Nuridinov Akmal Vaxobjonovich, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti rektori, tarix fanlari nomzodi, professor Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich, O'zbekiston xalq rassomi akademik, professor Boxodir Jalolov Fazliddinovich, O'zbekiston xalq rassomi akademik, professor Javlon Umarbekovlar o'zlarining mulohazalari bilan o'rtoqlashdi.

Professor-o'qituvchilar tomonidan "Ro'zi Choriyev ijodining milliy madaniyatimizdagi o'rni", "Ro'zi Choriyev merosi - muzeylarimiz gultoji", "Mehnatkash Surxondaryo olimlarining tabiatiga, san'atiga, mehnatiga munosabati rassom Ro'zi Choriyev asarlari timsolida", "Ijod yo'lida yonib yashagan xalq rassomi Ro'zi Choriyev hayoti va ijodi

haqida so'z..." kabi mavzularda ma'ruzalar qilindi.



